

O‘zbekiston “Adolat” SDP  
Siyosiy Kengashi Ijroiya  
Qo‘mitasining 2023 yil  
20 yanvardagi 38-son majlisi  
1-son qarori 1-ilovasi

**O‘zbekiston “Adolat” SDPdan O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentiga  
a’zolari saylash tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston “Adolat” SDPdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zolarini saylash tartibi (bundan keyin – saylov)ni belgilaydi.

2. Saylov O‘zbekiston “Adolat” SDPning Nizomi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti to‘g‘risidagi Nizom, 2022 yil 12 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2749-IV sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori asosida tashkil etiladi.

**II. Saylov natijalaridan ko‘zlangan maqsad**

3. Yoshlarni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga jamoatchilik asosida ko‘ngilli ravishda jalb qilish, qonun ijodkorligi va deputatlar faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish, pirovardida, ularning huquqiy va siyosiy bilimlarini, qonunlarga itoatkorlik madaniyatini yuksaltirish, erkin fikrlash qobiliyati va nutq madaniyatini o‘stirish, faol fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlash, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor ruhini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholi, ayniqsa yoshlar orasida keng targ‘ib qilishga o‘rgatish va bu bilan ularda parlament faoliyatiga daxldorlik hissini rivojlantirish, “Kelajak liderlari maktabini” shakllantirish, O‘zbekiston “Adolat” SDPning dasturiy maqsad va vazifalarini ro‘yobga chiqarishdan iborat.

**III. Saylovni tashkil etish, o‘tkazish tartibi va baholash mezonlari**

4. Saylovni tashkil etish, o‘tkazish tartibi va baholash mezonlari O‘zbekiston “Adolat” SDP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasiga, shuningdek, hududiy va mahalliy partiya tashkilotlari ijroiya qo‘mitalari zimmasiga yuklatiladi.

Saylov ikki yarim yilda 1 marotaba 3 bosqichda o‘tkaziladi.

O‘zbekiston “Adolat” SDP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi, shuningdek, hududiy va mahalliy partiya tashkilotlari ijroiya qo‘mitalari qarorlari bilan saylovni tashkil etish va o‘tkazish bilan shug‘ullanuvchi jamoatchilik asosidagi Tashkiliy qo‘mitalar tuziladi.

Tashkiliy qo‘mitalarning taklifi bilan O‘zbekiston “Adolat” SDP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi Markaziy apparatida, shuningdek, hududiy va mahalliy partiya tashkilotlarida Saylov hay‘atlari tashkil etiladi.

Saylov hay‘ati tarkibi partiya Siyosiy Kengashi raisi, hududiy va mahalliy partiya tashkilotlari Kengashlari raislari tomonidan tasdiqlanadi.

Respublika Saylov hay‘ati partiyaning Siyosiy Kengash raisi o‘rinbosarlari, Siyosiy Kengashi a‘zolari, boshqarma boshliqlari, partiyaning “Yosh adolatchilar qanoti” Respublika kengashi vakillari, deputatlar, O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi va boshqa yoshlar siyosatiga mas‘ul bo‘lgan davlat va nodavlat tashkilotlari vakillaridan jami 7 nafardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Hududiy va mahalliy Saylov hay‘atlari partiyaning hududiy va mahalliy Kengash raislari, Kengash a‘zolari, partiyaning “Yosh adolatchilar qanoti” kengashi vakillari, deputatlar, O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi va boshqa yoshlar siyosatiga mas‘ul bo‘lgan davlat va nodavlat tashkilotlari vakillaridan jami 7 nafardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Barcha bosqichdagi saylov hay‘ati a‘zolari o‘z fikrini bildirishda erkin va ovoz berishda teng huquqlidirlar. Ovozlar ochiq beriladi. Ovozlar soni teng bo‘lib qolgan holatda Saylov hay‘ati raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

**5.** Saylov okruglari va saylovni o‘tkazish muddatlari quyidagi tartibda belgilanadi:

Saylov okruglari O‘zbekiston “Adolat” SDPdan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 2019 yilda saylangan deputatning (ayni vaqtda faoliyat yuritayotgan-yuritmayotganligidan qat‘iy nazar) saylov okrugi hududi bo‘yicha amal qiladi.

1-bosqich saylovlar partiyaning mahalliy (tuman/shahar) partiya tashkilotlari tomonidan joriy yilning 23 yanvardan 6 fevral kuniga qadar o‘tkaziladi. Bunda, nomzodlar saylovda ishtirok uchun ariza va nizomda qayd etilgan hujjatlar to‘plamini joriy yilning 6 fevral kunigacha topshirishlari lozim.

Mahalliy partiya tashkilotlari huzurida tashkil etilgan Tashkiliy qo‘mitalar belgilangan saylov okruglarida Yoshlar parlamentiga bo‘lib o‘tadigan saylovlar, uning muddatlari va shartlari haqida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib boradi hamda nomzodlardan mazkur Nizomning 8-bandida qayd etilgan hujjatlarini belgilangan tartibda yig‘ib oladi. Nomzodlardan qabul qilingan hujjatlar mahalliy Saylov hay‘atiga kiritiladi. Saylov hay‘ati ushbu Nizom talablariga muvofiq hujjatlarni saralab beradi. Tashkiliy qo‘mita saralangan hujjatlarni mahalliy partiya Kengash raisi imzosi bilan partiyaning hududiy Kengashlari huzurida tuzilgan Tashkiliy qo‘mitaga taqdim etadi.

2-bosqich saylovlar partiyaning hududiy partiya tashkilotlari tomonidan 6 – 15 fevral kunlari oralig‘ida o‘tkaziladi.

Tashkiliy qo'mita partiyaning tuman (shahar) Kengashlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib, ushbu Nizomga mosligini o'rganadi, mavjud texnik kamchiliklarni to'g'rilash choralari ko'radi va nomzodlarni Saylov hay'ati muhokamasiga kiritadi.

Saylov hay'ati taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi, nomzodning saylovoldi dasturi taqdimoti (slayd, ma'ruza, videorolik shaklida

5 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqtga mo'ljallangan) bilan tanishadi va 5 ballik baholash mezoni asosida baholaydi. Baholashda Hay'at a'zolari ushbu Nizomning 10-bandida qayd etilgan jihatlarga asosiy e'tiborni qaratadi.

Murojaat qilganlar orasidan eng ko'p ball to'plagan 3 nafar nomzodning hujjatlari hududiy Saylov hay'ati raisi tomonidan tasdiqlangan Bayonnoma bilan birgalikda partiya Siyosiy Kengashi Markaziy apparatida tuzilgan Respublika Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etiladi.

3-bosqich saylovlar yakuniy (Respublika) bosqichi sifatida

15 – 22 fevral kunlari oralig'ida o'tkaziladi.

Respublika tashkiliy qo'mitasi yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bilan tanishib, ushbu Nizom talablariga mos yoki mos emasligini o'rganib, zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirib Saylov hay'ati muhokamasiga kiritadi.

Respublika saylov bosqichi nomzodning moliyaviy imkoniyati va boshqa sharoitlaridan kelib chiqqan holda xohishiga qarab gibrid (onlayn va oflayn) shaklida o'tkaziladi. Saylov hay'ati muhokamasida nomzodning saylovoldi dasturi taqdimoti (slayd, ma'ruza, videorolik shaklida

5 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqtda) bilan tanishiladi va 5 ballik baholash mezoni asosida baholanadi. Saylov hay'ati a'zolari tomonidan ushbu Nizom talablariga muvofiq baholanadi va 1 nafari mutlaq g'olib deb e'lon qilinadi. Ikkinchi o'rinni egallagan nomzod zaxirada qoldiriladi.

Respublika Saylov hay'ati tomonidan saralangan nomzodlarning ro'yxati va hujjatlari Saylov hay'ati raisi imzosi asosidagi Bayonnoma bilan Qonunchilik palatasidagi Yoshlar masalalari bo'yicha Komissiyaga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun yuboriladi.

Saylovlarni yuqori saviya va teng huquqlilik hamda adolat tamoyillari asosida o'tkazilishiga barcha darajadagi partiya rahbarlari mas'ul hisoblanadi.

#### **IV. Saylov shartlari**

**6.** Saylovda saralash bosqichiga hujjat topshirilgan kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan, lekin o'ttiz yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoshlar parlamentiga nomzod sifatida ko'rsatiladi.

Saylovlarda ishtirok etish uchun ariza mazkur Nizomda qayd etilgan hujjatlar to'plamini belgilangan muddatlarda partiyaning tuman (shahar) Kengashi saylov bo'yicha tashkiliy qo'mitasiga topshiradi.

Saylov okrugining hududi ariza beruvchining tug'ilgan joyi, yashash joyi yoki ish joyi bo'lishi zarur.

7. Quyidagilar saylovda nomzod sifatida ro'yxatga olinmaydi:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati, Senat a‘zosi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatlari;
- muomalaga layoqatli bo‘lmagan yoshlar;
- sodir etgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmagan yoshlar.

**8.** Ishtirokchilar tomonidan siyosiy partiyaga quyidagi hujjatlar topshiriladi:

- nomzod to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘zida ifoda etgan hujjatlar (anketa, shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi va 3x4 hajmdagi sifatli rasmi);
- nomzodning turli sohalarda erishgan yutuqlarini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi (davlat mukofotlari, sertifikat, diplom, faxriy yorliq va boshqalar);
- ommaviy axborot vositalaridagi faolligini tasdiqlovchi materiallar;
- nomzodning partiyaning dasturiy maqsad va vazifalarini yoshlar orasida keng targ‘ib qilishga qaratilgan takliflari ifoda etilgan loyiha;
- yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini yoshlar orasida keng targ‘ib etish borasidagi ishlarini tasdiqlovchi hujjatlar (ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari, targ‘ibot rasmlari);
- nomzodning yoshlarga oid davlat siyosatiga doir qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan saylovoldi dasturi (taqdimot ko‘rinishida ham).

Saylovga taqdim etilayotgan hujjatlarni o‘zbek va rus tillarida taqdim qilish mumkin.

**9.** Birinchi bosqichda partiyaning Tashkiliy qo‘mitalari va Saylov hay‘atlari tomonidan nomzod hujjatlarining ushbu Nizomning 6-8 bandlariga muvofiqlik holatlariga e‘tibor qaratiladi.

**10.** Ikkinchi bosqichda partiyaning Tashkiliy qo‘mitalari va Saylov hay‘atlari tomonidan ushbu Nizomning 6-8 bandlari talablari bilan bir qatorda har bir nomzodning quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratadi:

- qonunchilik sohasidagi bilimi va ko‘nikmalari;
- qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar;
- siyosiy partiyaning faoliyatidagi faollik darajasi;
- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, siyosiy partiyaning faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi qonun hujjatlari, shuningdek, siyosiy partiyaning ustavi (nizomi), dasturiy maqsadlarini bilish darajasi;
- davlat boshqaruviga oid va jamiyatimizda amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlar haqidagi qarashlari;
- OAVdagi faolligi, yoshlar orasidagi yetakchilik qobiliyati.

**11.** Uchinchi bosqichda siyosiy partiyaning Markaziy apparati tomonidan saralash bosqichida tavsiya etilgan nomzodlar o‘rtasida saylovoldi dasturi yuzasidan taqdimot o‘tkaziladi.

**12.** Taqdimot natijalariga ko‘ra, siyosiy partiya Markaziy apparati O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo‘lib o‘tgan saylovda egallagan o‘rniga mos ravishda munosib nomzodlarni ochiq ovoz berish yo‘li orqali (ma‘muriy-hududiy birlik asosida) saylaydi.

Bunda xotin-qizlarning soni a'zolikka nomzodlar umumiy sonining kamida o'ttiz foizini tashkil etishi kerak.

**13.** Saylovda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

nomzodlarning saylov oldi dasturlari yoshlarga oid muammolar va taklif etilayotgan yechim yo'llari;

yoshlarga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha bergan takliflari;

nomzodlarning notiqlik madaniyati, liderlik qobiliyati hamda loyiha mazmunini tinglovchilarga yetkazish salohiyati;

bilimli va hozirjavobligi.

**14.** Saylov hay'ati qaroriga binoan siyosiy partiyaning hayotida faollik ko'rsatgan, uning imijini keng jamoatchilik, xususan, yoshlar orasida targ'ib qilib, namunali xulqi bilan boshqa tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan yoshlarga ustunlik taqdim etilishi mumkin.

**15.** Saylovga taqdim etilgan hujjatlar va materiallar Tanlov komissiyalari tomonidan qaytarilmaydi.

## **V. Nizomning kuchga kirishi**

**16.** Mazkur Nizom O'zbekiston "Adolat" SDP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

**17.** Saylovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlar O'zbekiston "Adolat" SDP Siyosiy Kengashi Markaziy apparati va partiyaning hududiy hamda mahalliy Kengashlari tomonidan bajariladi.